

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati
Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil 3-oyi davomida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni aniqlash va baholash yo‘nalishida
amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

H I S O B O T

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash “NKMK” AJda har yili amalga oshiriladi.

Hususan, 2022-yilda o‘tkazilgan baholashda **19 ta yuqori** va **57 ta o‘rta**, 2023-yilda **3 ta yuqori** va **45 ta o‘rta** hamda 2024-yilda **1 ta yuqori** va **19 ta o‘rta** xavf-xatari mavjud bo‘lgan funksiyalar aniqlanib, ushbu xavf-xatarlarni minimallashtirish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Masalan, “NKMK” AJning 2024-yil 21-oktabrdagi 700-sonli buyrug‘i asosida Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tadbiri o‘tkazilgan. Baholash natijalariga ko‘ra, Jamiyatda mavjud jami **1 478 ta** funksiyalarning **1 tasi** “yuqori”, **19 tasi** “o‘rta” va **1 458 tasi** “past” darajadagi xavf-xatarlar baholanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2024-yil 23-yanvarda **14** banddan iborat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, kelgusida oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning umumlashtirilgan Xaritasi va korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati hamda korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri shakllantirib, tasdiqlangan.

2025-yil 31-mart holatiga Dasturning **1 ta** bandi ijrosi ta’minlandi va **13 ta** bandlar ijrosi davom etmoqda.